Investitsiyani rivojlantirishining huquqiy asoslari

Avvallari yopiq iqtisodiyot va noqulay investitsiya muhiti tufayli investorlar O‘zbekistonga potensial manzil sifatida qaramas edi. Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan amalga oshirilgan liberallashtirish islohotlari esa vaziyatni ijobiy tomonga o‘zgartirdi.



Dunyodagi “Katta uchlik boshqaruv konsaltingi”ga kiruvchi BCG kompaniyasi ekspertlarining fikricha, so‘nggi o‘zgarishlar nuqtayi nazaridan O‘zbekistonning sarmoyaviy istiqboli sezilarli darajada kengaydi. “Markaziy Osiyoga investitsiyalar: bir mintaqa, ko‘plab imkoniyatlar” ma’ruza xulosalariga ko‘ra, mamlakatimizning sarmoyaviy salohiyati 65 milliard AQSh dollarini tashkil etadi, shundan 20 milliard AQSh dollarigacha noxomashyoviy sohalarga to‘g‘ri keladi.

Barcha iqtisodiy islohotlarning uchdan ikki qismi so‘nggi bir necha yilda amalga oshirildi. Ularning aksariyati biznesni ro‘yxatdan o‘tkazish, soliqqa tortish, kredit olish va mulkni ro‘yxatdan o‘tkazish bilan bog‘liq[1]. So‘nggi to‘rt yilda amalga oshirilgan islohotlar valyuta bozorini liberallashtirish, soliq islohotlari va davlat organlarining shaffofligini sezilarli darajada oshirishga qaratildi.

Bu boradagi kamchiliklarni bartaraf etishda “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonun muhim o‘rin tutayotganini e’tirof etish lozim. Prezident tomonidan e’lon qilingan Taraqqiyot strategiyasining ikki yo‘nalishi quyidagi masalalarga qaratilgan: davlat boshqaruvini isloh qilish va qonun ustuvorligini mustahkamlash. Ijro etuvchi organlar ushbu muammolarni hal etish bo‘yicha sa’y-harakatlarni kuchaytirdi.

Biznesning normal ishlashiga monelik qiluvchi to‘siqlar soni sezilarli darajada kamaydi. Shunday qilib, ko‘plab litsenziyalarni olish zarurati bartaraf etildi, ayrim tovarlarga eksport va import litsenziyalari qisqartirildi. Import shartnomalarini tekshirish sezilarli darajada soddalashtirildi va import shartnomalari bo‘yicha hisobot majburiyatlari bekor qilindi. Eksport

[1] Всемирный Банк 2019. Показатель благоприятности условий ведения бизнеса. http://doingbusiness.org/ru/data/exploreeconomies/uzbekistan#DB_tab.

to‘lovlarini qayta ishlash soddalashtirilib, transportda tashish oldidan majburiy tekshiruvlar to‘xtatildi. Shuningdek, auditorlik kompaniyasini erkin tanlash ta’minlandi, chegara hududlarida savdo qilishda tarifsiz to‘siqlar, davlat organlarining kompaniyalarni rejadan tashqari tekshirishlari bekor qilindi, mahalliy va xorijiy kompaniyalar hamda investorlar manfaatlarini himoya qilish maqsadida biznes-ombudsman lavozimi joriy etildi.

Mamlakatimizda ishbilarmonlik muhitini yaxshilash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar qabul qilinishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritildi[2]. Unga muvofiq AJ ulushiga xorijiy investorlarni majburiy jalb qilish to‘g‘risidagi hamda ustavda belgilanadigan yuridik shaxslarning ustav kapitali hajmiga bo‘lgan talab bekor qilindi. Bundan faqat litsenziyalash talablarida minimal hajm aniqlangan holatlar mustasno edi. Kompaniya affillangan shaxslar bilan bitim tuzilgani to‘g‘risidagi ma’lumotlarni 72 soat ichida oshkor qilishi majburiy bo‘ldi. Sud ishlarini oz miqdordagi da’vo bilan ko‘rib chiqishning soddalashtirilgan tartibi joriy etildi va hakamlik sudining qarori qo‘shilgunga qadar nizolarni hal qilish jarayonida mediatsiyadan foydalanish imkoniyati yaratildi. Hakamlik sudi taraflar mediativ kelishuv tuzgan taqdirda ish yuritishni tugatishga haqli. Shunga ko‘ra, iqtisodiy protsessual va boshqa kodekslarga nafaqat kelishuv bitimini, balki mediativ kelishuvni ham nazarda tutadigan o‘zgartirishlar kiritildi.

Bundan tashqari, xorijiy investorlar uchun imtiyoz va preferensiyalar yaratildi. Qonunchilikka muvofiq tadbirkorlar va investorlar uchun 380 dan ortiq, shu jumladan, 70 ta soliq, 50 ta bojxona, 50 ta bank va 40 ta maxsus imtiyozlar taqdim etildi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri xususiy xorijiy investisiyalarni jalb etuvchi va qonun hujjatlarida tasdiqlangan ro‘yxat bo‘yicha mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashgan yuridik shaxslar investitsiyalar hajmidan kelib chiqqan holda yuridik shaxslardan olinadigan daromad solig‘i, mol-mulk solig‘i, mikrofirma va kichik korxonalar uchun yagona soliq to‘lovi, Respublika yo‘l jamg‘armasiga majburiy badallar to‘lashdan ma’lum muddatga ozod etildi.

Iqtisodiyot tarmoqlari uchun ham imtiyoz va preferensiyalar taqdim etildi. Shunday qilib, tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishda ma’muriy tartibtaomillar soddalashtirildi, tadbirkorlarga dastlabki to‘lovsiz, akkreditiv ochmagan, bank kafolatini rasmiylashtirmagan va sug‘urta polisiga ega bo‘lmagan holda tovarlar, ishlar va xizmatlarni chet el valyutasiga eksport qilishga ruxsat berildi.

Prezidentning 2018-yil 31-oktyabrdagi “Tovar bozorlarida savdoni yanada erkinlashtirish va raqobatni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni bilan davlat ulushi 50 foizdan kam bo‘lgan tashkilotlarning bitimlari uchun ichki bozorda 15 foiz oldindan to‘lash talabi va ayrim turdagi tovarlarni eksport qilishga doir cheklovlar bekor qilindi.

Tadbirkorlar o‘zlari va yakka tartibdagi tadbirkorlar o‘rtasida korporativ bank kartalaridan foydalangan holda oldi-sotdi shartnomalarini tuzmasdan, invoys (hisob-faktura) bergan holda naqd pulsiz to‘lovlarni amalga oshirish huquqiga ega bo‘ldi.

Mamlakat xalqaro savdoni yuritishni tezlashtirish chora-tadbirlarini ham boshladi. Hokimiyat tomonidan eksport va import operatsiyalari bo‘yicha “yagona darcha” tamoyili asosida elektron so‘rov yuborish va turli xil ruxsatnomalar, shu jumladan, tovarning kelib chiqish sertifikati va fitosanitariya sertifikatlari uchun to‘lovlarni amalga oshirish imkonini beruvchi veb-saytning milliy versiyasi ishga tushirildi. Ushbu yangi mexanizmlarning joriy etilishi bilan eksport hujjatlarini rasmiylashtirishning umumiy vaqti ikki baravar kamaydi.

Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda kichik biznesni rivojlantirish, ishbilarmonlarni himoya qilish va mamlakat iqtisodiy maydonida ularning mavqeyini mustahkamlash maqsadida tadbirkorlik subyektlarining moliya-xo‘jalik faoliyatini tekshirish uchun 2 yillik moratoriy o‘rnatishga qaratilgan qator chora-tadbirlar amalga oshirildi, soliq imtiyozlari berildi. Shuningdek, xususiy va oilaviy biznesni rivojlantirish uchun kreditlar olish soddalashtirildi. Yagona davlat xizmatlari portalidan foydalangan

[2] ЗРУ-531 от 20.03.2019.

[3] Доклад министра юстиции Республики Узбекистан Р.Давлетова на международном форуме государств-членов ШОС. http://www.minjust.uz/ru/about/meetings/9828.

holda yakka tartibdagi tadbirkorlikni ro‘yxatdan o‘tkazish jarayoni osonlashtirildi, mehmon uylarini ro‘yxatdan o‘tkazish tizimi yengillashtirilib, kreditlar uchun imtiyozlar berildi.

“Yagona darcha” tamoyili asosida yagona markazlar orqali davlat xizmatlarini ko‘rsatishning yangi tartibi belgilandi. Markazlar faoliyati orqali tadbirkorlik subyektlari va davlat idoralari o‘rtasida o‘zaro aloqalarning elektron shakli o‘rnatildi. Bu suiiste’mol qilish xavfini kamaytirish, byurokratik to‘siqlarni bartaraf etish va tadbirkorlik subyektlariga zarur axborot yordamini ko‘rsatishning ishonchli tizimini shakllantirishga yordam berdi[3].

Investisiya qonunchiligini takomillashtirishda ham katta qadamlar qo‘yildi. O‘zbekiston Respublikasining investitsiya faoliyati to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida qator muhim normativ-huquqiy hujjatlar o‘z ifodasini topgan. Prezident ta’kidlaganidek: “Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, qaysi davlat faol investitsiya siyosatini yuritgan bo‘lsa, o‘z iqtisodiyotining barqaror o‘sishiga erishgan. Shu sababli ham investitsiya – bu iqtisodiyot drayveri, o‘zbekcha aytganda, iqtisodiyotning yuragi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi”[4].

So‘nggi yillarda investitsiyalar sohasida tugallanmagan (hadli) va fragmentar tabiatga ega ayrim munosabatlarni qonun darajasida tartibga solish qonunosti tartibga solish bilan almashtirildi. Bu esa huquqiy kolliziyalarga va investitsiya qonunchiligining umumiy tizimli mantig‘ining buzilishiga olib keldi va investitsiya muhitini xorijiy investorlar uchun kutilmagan va jozibasiz qilib qo‘ydi.

Shu bois dastlab Investitsiya kodeksini qabul qilish rejalashtirilgan edi, ammo keyinchalik hujjat formati qayta ko‘rib chiqilib, uni “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi qonun shaklida amalga oshirishga yo‘naltirildi. E’lon qilingan qonun loyihasi bugungi kunda turli hujjatlarni, ya’ni “Xorijiy investitsiyalar to‘g‘risida”gi, “Investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi, “Investitsiya va pay fondlari to‘g‘risida”gi, “Erkin iqtisodiy zonalar to‘g‘risida”gi, “Konsessiyalar to‘g‘risida”gi, “Mahsulot taqsimotiga oid bitimlar to‘g‘risida”gi va boshqa qonunlarda, shuningdek, bir qator qonunosti hujjatlarida mavjud normalarni tizimli ravishda birlashtiradi[5].

Tarkibiy jihatdan hujjat 10 bo‘lim, 42 bob, 251 moddadan iborat. Unda umumiy qoidalar bilan birga investisiyalar va investisiya faoliyatini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari, investitsiyalarni institutsional boshqarish jihatlari (investitsiya, pay investitsiya va venchur fondlari), erkin iqtisodiy zonalarga, konsessiyalar va ishlab chiqarishni taqsimlash shartnomalari doirasida investitsiyalarning xususiyatlari, O‘zbekistonda xorijiy investitsiyalarning huquqiy rejimi va mamlakatdan tashqarida investitsiya faoliyatini amalga oshirish tartibga solinishi belgilandi.

Shuningdek, «O‘zbekiston Respublikasining fuqarolik qonunchiligini takomillashtirish» konsepsiyasi ishlab chiqildi[6]. Unda mamlakat rivojlanishining yangi bosqichi, iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish, iqtisodiy munosabatlarni tartibga solishda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy mulk huquqlarini himoya qilish kafolatlarini mustahkamlash, shuningdek, tadbirkorlikni rivojlantirish va xorijiy investitsiyalarni faol jalb etishni rag‘batlantirishga qaratilgan ustuvor yo‘nalishlar belgilandi. Konsepsiyaning alohida bobi «Bozor munosabatlarini rivojlantirish va xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning mustahkam huquqiy asoslarini shakllantirish»ga bag‘ishlangan. Unda ishbilarmonlik va investitsiya muhitini yaxshilashga e’tibor qaratilgan.

Prezidentning 2019-yil 28-yanvardagi “Investitsiya va tashqi savdo sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoniga muvofiq Tashqi savdo vazirligi va Investitsiyalar bo‘yicha davlat qo‘mitasi negizida Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi tashkil etildi. 2019-yil 11-may kuni «O‘zbekiston Respublikasining 2025-yilgacha “Investitsiya siyosati strategiyasi” taqdim etildi[7]. Strategiyaning asosiy vazifalari sifatida quyidagilar belgilab olindi.

[5] https://www.norma.uz/proekty_npa/razrabotan_zakon_ob_investiciyah_i_investicionnoy_deyatelnosti
[6] Утверждена Распоряжением Президента Республики Узбекистан от 5 апреля 2019 года за №Р-5464.
[7] https://regulation.gov.uz/uz/document/3394.

Investitsiya muhitini yaxshilash yoʻnalishi boʻyicha:

– mamlakatda ishbilarmonlik sharoitlarining shaffofligini oshirish va investitsiyalarni jalb qilish uchun qulay sharoitlar yaratish;

– savdo logistikasini takomillashtirish hamda xorijiy investorlar va mahalliy kompaniyalar oʻrtasida ishlab chiqarish va sotish aloqalarini rivojlantirish.

Investitsiyalarning ichki manbalarini faollashtirish va investitsiya resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish yoʻnalishi boʻyicha:

– korxonalarning investitsiya imkoniyatlarini kengaytirish, shu jumladan, korxonalarning boshqaruv sifatini oshirish va moliyaviy holatini mustahkamlash orqali;

– aholi mablagʻlarini investitsiya faoliyatiga faol jalb qilish;

– tijorat banklarining investitsiya salohiyatini kengaytirish.

Strategiyani ishlab chiqishning dolzarbligi shundaki, u tarmoq va mintaqaviy investitsiya siyosatining yoʻnalishlari boʻyicha yoʻl-yoʻriq koʻrsatadi va investitsiyalarni koʻpaytirish va diversifikatsiya qilishga qaratilgan mamlakatning investitsiya qarashlarini shakllantiradi. Strategiyada investitsion salohiyatni oshirish maqsadida qator chora-tadbirlarni amalga oshirish rejalashtirilgan. Ichki investitsiya manbalarini faollashtirishning asosiy yoʻnalishlari ham belgilab olindi. Shuningdek, aholi mablagʻlarini respublikada investitsiya faoliyatiga faol jalb etish alohida ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

2025-yilgacha investitsiyalarning asosiy manbalari toʻgʻridan-toʻgʻri investitsiyalar, shu jumladan, davlat-xususiy sheriklik, davlat investitsiyalari va korporativ qimmatli qogʻozlar sarmoyalari boʻladi. 2019 – 2025-yillarda amalga oshirilayotgan hamda istiqbolli yangi investitsiya loyihalari doirasida 1 trln. 2 mlrd. 500 mln. soʻmdan ortiq markazlashtirilmagan investitsiyalarni oʻzlashtirishi koʻzda tutilgan. Shuning 30 foizi korxonalarning oʻz mablagʻlari hisobidan moliyalashtiriladi.

Bundan tashqari, dastlabki hisob-kitoblar va salohiyatli investorlar uchun qiziqish uygʻotadigan boshqa axborotni oʻz ichiga olgan aniq loyihalarni koʻrsatgan holda, har bir hududning ishlab chiqarish salohiyati va investitsiyalarga boʻlgan ehtiyojlarini aks ettiruvchi Oʻzbekiston Respublikasining interfaol investitsiya xaritasini ishlab chiqish hamda joriy etish rejalashtirilgan edi.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar ta'sischilari va ularning oila a'zolari uchun uzaytirish imkoniyati bilan beriladigan, amal qilish muddati uch yilgacha boʻlgan "investitsiya vizasi" joriy etildi. Xorijiy davlatlarning fuqarolari, shu jumladan, chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarning ta'sischilariga soddalashtirilgan tartibda Oʻzbekiston Respublikasida yashash guvohnamasini 10 yil muddatga olish imkoniyati taqdim etildi. Yashash guvohnomasiga yoxud «investitsiya vizasi»ga ega boʻlgan chet ellik investorlar hamda ularning oila a'zolari Oʻzbekiston Respublikasi fuqarolari uchun nazarda tutilgan teng huquqlar asosida tibbiy va ta'lim xizmatlaridan foydalanish huquqlariga ega boʻldi.

Prezidentning 2020-yil 28-dekabrdagi qarori bilan 2021 – 2023-yillar uchun investitsiya dasturini amalga oshirish boʻyicha chora-tadbirlar tasdiqlandi. Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligida Investitsiyadan keyingi monitoring boshqarmasi tashkil etildi. Uning faoliyati asosan investitsiya dasturlari doirasida yaratilgan ishlab chiqarish quvvatlari va obyektlaridan foydalanish darajasini tahlil qilishga, loyiha tashabbuskorlariga investitsiya loyihalarining texnik-iqtisodiy koʻrsatkichlariga erishishda yordam berishga qaratilgan edi.

Hukumatning islohotlar toʻplamiga ham xususiy mulkni mustahkamlash, ushbu sohaning me'yoriy-huquqiy bazasini takomillashtirish kiritilgan. "Qishloq xoʻjaligiga moʻljallanmagan yer uchastkalarini xususiylashtirish toʻgʻrisida"gi qonunda yer uchastkalarini xususiylashtirish obyektlari sifatida yuridik shaxslarga qarashli yoki ular tomonidan xususiylashtiriladigan binolar va inshootlar, ishlab chiqarish infratuzilmasi obyektlari, shuningdek, ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshirish uchun zarur boʻlgan kattalikdagi ularga tutash yer uchastkalari hisoblanishi nazarda tutilgan.

Qonunda xususiylashtiril-

gan yer uchastkalari xususiy mulk va fuqarolik muomalasi obyektlari ekani, xususiy mulk huquqi daxlsiz va qonunga muvofiq davlat tomonidan himoya qilinishi belgilab qoʻyildi.

Shuningdek, xorijiy investorlar uchun qulay tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlar yaratish, xususan, xorijiy investitsiyalar sohasida xalqaro arbitrajning zamonaviy standartlarini joriy etish, bu boradagi xalqaro amaliyot va tajribani oʻrganishga alohida e'tibor qaratildi. Xalqaro arbitraj nizolarni hal etishning tartib-taomillariga individual yondashuvni yaratishi va uni murakkab tirjorat nizolarini hal etish uchun kuchli vositaga aylantirishi mumkin.

Hozir Oʻzbekiston mintaqaviy savdoni ragʻbatlantirish, mintaqada energetika va transport infratuzilmasini tiklash boʻyicha mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirishda yetakchi oʻrinni egalladi. Mamlakatimiz tadbirkorlik uchun keng imkoniyatlarga ega bozordir. Kon sanoati, elektr energetikasi, metallurgiya, qurilish materiallari, toʻqimachilik, tikuvchilik, konchilik, kimyo sanoatida yangi tarmoq dasturlari samarali tadbirkorlik faoliyati yuritish uchun zamin yaratdi. Erkin iqtisodiy zonalar va soliq, bojxona imtiyozlari va preferensiyalariga ega boʻlgan koʻplab biznes-parklar toʻgʻridan-toʻgʻri xorijiy investitsiyalar uchun jozibador sanaladi.

Taraqqiyot strategiyasida belgilangan milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori oʻsish sur'atlarini ta'minlash vazifalari doirasida yillik inflyatsiya darajasini pasaytirish, tijorat banklarining davlat ulushi bilan transformatsiya jarayonini yakunlash, 2026-yil oxiriga qadar bank aktivlarida xususiy sektorning ulushini 60 foizgacha oshirish, masofaviy xizmatlar koʻrsatishga ixtisoslashgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati uchun maxsus sharoitlar yaratish orqali yakka tartibdagi litsenziyalar va boshqa ruxsatnomalarni olish talablarini bekor qilish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar koʻzda tutilgan.

2022-yil boshida mamlakatda chet el ishtirokidagi 13000 dan ortiq kompaniya faoliyat koʻrsatmoqda. 2021 – 2023-yillarda poytaxtimizda 10,7 milliard AQSh dollarilik 1390 ta investisiya loyihasini amalga oshirish va 98 mingga yaqin ish oʻrni yaratish rejalashtirilgan.

Hukumat 2022-yilda yillik eksport hajmini sezilarli darajada oshirib, 30 milliard AQSh dollariga yetkazishni rejalashtirmoqda. Yaqin uch yil ichida mahalliy va xorijiy investorlar hamda xalqaro donorlarning moliyaviy koʻmagi bilan respublika hududida eksportga yoʻnaltirilgan mingdan ortiq korxona tashkil etilishi kutilmoqda[8].

Shu bilan birga, strategik natijalarga qaratilgan ayrim islohotlar muayyan qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Shuningdek, bozor talablari va uning ishtirokchilari manfaatlarini hisobga olgan holda oʻzgarishlarni talab qiladigan qator yoʻnalishlar mavjud. Umuman olganda iqtisodiyotni qayta tashkil etish boʻyicha koʻplab vazifalar hali oldinda. Rejalashtirilgan chora-tadbirlar qatorida[9]:

– vakolatli va ochiq davlat boshqaruvini yaratish, hokimiyat tomonidan tartibga solish va rejalashtirishni qisqartirish, markaziy hokimiyat organlarining vakolatlarini quyi va mintaqaviy boʻgʻinlarga oʻtkazish;

– soliq tizimi va davlat moliyasini har tomonlama isloh qilish;

– mustaqil sud tizimini yaratish;

– bojxona tartib-taomillalarini soddalashtirish, shu jumladan, ayrim bojlarni bekor qilish;

– hukumat aralashuvini sezilarli darajada qisqartirish bilan ishbilarmonlik muhitini sezilarli darajada yaxshilash;

– agrar sektordagi islohotlarni davom ettirish;

– yirik davlat korxonalarini restrukturizatsiya qilish, ushbu kompaniyalarning davlat aksiyalarini sotish yoki boshqaruvni xususiy investorlarga oʻtkazish;

– mahalliy va xorijiy kompaniyalar uchun soliq va boshqa imtiyozlarni soddalashtirish: individual preferensiyalar va korporativ yengilliklarni bekor qilish, sanoat yoki sektor tomonidan shaffof imtiyozli sharoitlarni yaratish;

– statistik monitoring va baholashni xalqaro miqyosda tan olingan standartlarga, biznes yuritish usullari va tartib-taomillariga moslashtirish.

Koʻrsatilgan jihatlar Oʻzbekiston Respublikasining iqtisodiy siyosatida kutilgan koʻrsatkichlarga, ijobiy barqarorlikka erishayotganidan dalolat beradi. Shuningdek, oʻrta muddatli istiqbolda rejalashtirilgan islohotlar natijalari mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini mustahkamlaydi, tashqi savdoni kengaytiradi hamda xorijiy investorlarning qiziqishini oshiradi.

Dilorom KARAXODJAYEVA,
TDYU professori, yuridik fanlar doktori

[8] https://mfa.uz/ru/press/smi/2018/07/15385.
[9] Пресс служба Министерства иностранных дел Республики Узбекистан. Отчет Germany Trade & Invest (GTAI). https://mfa.uz/ru/press/smi/2018/07/15385.